

“Navoiyazot” AJ mutaxassislari korxonalar faoliyati bilan yaqindan tanishish maqsadida Xitoyda bo'lishdi

// 07.02.2024

<https://uzkmyosanoat.uz/oz/press/news/navoiyazot-aj-mutaxassislari-korxonalar-faoliyati-bilan-yaqi>



Ma'lumki, O'zbekiston va Xitoy o'rtaсидаги hamkorlik aloqalari mustahkamlanib bormoqda. Xususan, kimyo sanoati rivojida ham bunday manfaatli munosabatlarning o'rni beqiyos. Xitoyning Urumchi shahrida o'tkazilgan hududlararo forumda ishtirok etgan "Navoiyazot" AJ mutaxassislari ikki mamlakat vakillarining kelajakdagagi istiqbolli loyiha hamda tashabbuslariga guvoh bo'lishdi.



Investitsion forum doirasida soha vakillari Xitoydagi korxonalar faoliyati bilan yaqindan tanishish maqsadida Shanxay shahrida ham bo'lishdi. Tajribali investorlar bilan o'tkazilgan muzokaralarda kimyo sanoatidagi hamkorlik samaradorligi va galdag'i rejalar haqida so'z bordi. Ma'lumot o'rniда aytish lozim, "Navoiyazot" AJ da barpo etilgan PVX, kaustik soda va metanol ishlab chiqarish majmuasi aynan Xitoy bilan xalqaro hamkorlikning mahsuli hisoblanadi.



2026-yilga qadar ushbu majmuaning 2-navbatini barpo etish rejalashtirilgan. Bu esa ishlab chiqarish hajmini yanada oshirish, yangi ish o'rinalarini yaratishga xizmat qiladi. "Navoiyazot" AJ mutasaddilarining Xitoya bo'lgan xizmat safari taassurotlari yangi tashabbus va loyihalar uchun poydevor bo'lsa ajabmas.



"NAVOIYAZOT" AJ AXBOROT XIZMATI